

Mavzu: Kishilik olmoshlari

Darsning maqsadi:

1. **Ta'limiy maqsad:** Kishilik olmoshlari haqida yangi ma'lumotlar berish va bilimlarni mustahkamlash.
2. **Tarbiyaviy maqsad:** o`quvchilarda insoniy hislatlarni, adolat, mehr-shafqat kabi komil insonga xos sifatlarni shakllantirish.
3. **Rivojlantiruvchi maqsad:** o`quvchilar og`zaki va yozma nutqini shakllantirish, o`stirish.

Darsning tipi: yangi bilim berish va tushunchalar hosil qilish

Darsning uslubi: noan'anaviy

Darsning usuli: musobaqa, savol-javob, BBB

Darsning jihozi: darslik, tarqatma va ko`rgazmali materiallar, slayd, qo`shimcha adabiyotlar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism :

a) salomlashish ;

b)navbatchi hisoboti ;

v) tozalik .

Dars shiori :

Nafosat – go`zallik shu tilga xosdir .

Darsning maqsadi :

Ilm cho`qqisini zabt etamiz.

II.O`tilgan mavzuni so`rash:

Sinf o'quvchilarini guruhlarga bo'lib olamiz:

1-guruh : “Zukkolar ”

2-guruh : “Topqirlar ”


3-guruh : “Donolar ”

4-guruh : “Bilimdonlar ”

O'tilgan mavzuni so'rashda “So'z daraxti” o'yinidan foydalanamiz:

Olmosh deb yozilgan “So'z daraxti ”ga o'quvchilar “meva” o'rniga ko'rsatish olmoshlarini yozsinlar .

Topshiriq: ko'rsatish olmoshlarini yozish orqali “So'z daraxti”ni hosil qiling.



2. Nima uchun nutqimizda olmoshlarni qo'llaymiz ?
3. *-cha* qo'shimchasini *u, bu, shu* olmoshlariga qo'shing va sodir bo'layotgan tovush o'zgarishi haqida so'zlab bering.
4. Olmosh tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi va qaysilar ?

2 –shart

O'quvchilarga tarqatma material tarqatiladi .

Topshiriq : Bo'sh kataklarga quyida berilgan olmoshning qaysi ma'no turiga tegishli ekanini belgilang . (+ ishorasi orqali)

Turlari	Bu	O'zim	Shu	Siz	Kimdir	Biz	Shuncha	Mana	Ular
Kishilik olmoshlari									
O'zlik olmoshi									
Ko'rsatish olmoshlari									
Gumon olmoshlari									

1. Ko'rsatish olmoshlariga qaysilar kiradi ?
2. Gumon olmoshlari qaysilar ?
3. O'zlik olmoshlari qaysilar?
4. Kishilik olmoshlari-chi?

Shart yakunida ko'p so'z topgan , fikrni yaxshi ifodalangan o'quvchiga “So'z ustasi ” medalini topshiramiz .

III. Yangi mavzu bayoni:

Yangi mavzuni o'tishdan oldin BBB jadvalini tarqatamiz:

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim
O'quvchilar kishilik olmoshlari haqida bilganlarini yozadilar. Yozilgan fikrlar taxminiy ham bo'lishi mumkin.	O'quvchilar kishilik olmoshlari haqida qanday ma'lumotlarni bilishni istaydilar, shuni savol tarzida shakllantiradilar.	O'qituvchi tomonidan kishilik olmoshlari haqida tushuncha berilgach, o'quvchilarning xotirasida qolgan ma'lumotlar yoziladi.

O'qituvchi kishilik olmoshlari haqida quyidagilarni ma'lumotlarni beradi:

Uch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmoshlar kishilik olmoshlari hisoblanadi.

So'zlovchi birinchi shaxs, tinglovchi ikkinchi shaxs, nutqdan tashqari barcha shaxs, narsa, voqea-hodisalar o'zga, ya'ni uchinchi shaxs sifatida qaraladi.

Men, biz birinchi shaxs, sen, siz ikkinchi shaxs, u, ular uchinchi shaxs kishilik olmoshlari hisoblanadi. Bulardan men, sen, u birlik, biz, siz (lar), ular ko'plik ma'nosini bildiradi. Ba'zan biz, siz, ular birlik ma'nosida ham qo'llaniladi.

Biz birlik ma'nosida qo'llanganda kamtarlik, bajargan ishida o'zini ta'kidlamaslik ma'nosini bildiradi. Masalan: Mening uyim o'rniga Bizning uyimiz. Men g'olib chiqdim o'rniga Biz g'olib chiqdik.

Shuningdek, siz, ular yakka shaxsga ishora qilib, hurmat ma'nosini ham bildiradi. Masalan: Sen kelding o'rniga Siz keldingiz, U keldi o'rniga Ular keldilar. Siz hurmat ma'nosini bildirganda, ko'pincha ko'plik ma'nosini ifodalash uchun unga -lar qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: Sizlarga doimo baxt yor bo'lsin.

Men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda, talaffuzda bir n tovushi tushib qoladi va shunday yoziladi.

Yangi mavzu tushuntirilgach, "Tez almashtir" mashqi orqali sizning kishilik olmoshlari yuzasidan o'rgangan bilimlaringizni qanchalik zukkolik, chqqonlik bilan amalda qo'llay olishingizni sinab ko'ramiz. Topshiriqlarga diqqat qiling. Sizga ot, otlashgan sifat qatnashgan gaplar beriladi. Shu so'zlar o'rniga mos keladigan olmoshni qo'yamiz.

1-guruh :
ot

Haydar kinoga bordi

2-guruh : Ot

Dilbar pazanda qiz.

3-guruh : Otlashgan sifat

Donolar ko'p gapirmaydilar.

4-guruh : otli.sifat

Yaxshilar to'plandi.

O'quvchilarga savol tashlanadi :

1. Kishilik olmoshlari qaysi so'z turkumlari o'rnida qo'llanar ekan ?
2. Kishilik olmoshlari gapda qaysi gap bo'lagi vazifasida ishlatiladi ?
3. Tahlilda kishilik olmoshlarining ostiga qanday chiziq chiziladi?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:


Darslikdagi mashqni slaydda namoyish etamiz. Guruhlardan vakillar chiqib kishilik olmoshlarini ko'rsatadilar. Qolganlar mashqni yozma bajaradilar. Mashq tugagach, "Siz so'z qasriga kirishni xohlaysizmi?" o'yini tashkil etiladi.

Shartimiz quyidagicha : to`ta guruhdan bittadan o`quvchi savol – javobga ishtirok etish uchun doskaga chiqadi va kishilik olmoshlari yuzasidan o`rgangan bilimlarini amalda sinab, qoidalarini navbatma-navbat aytishga harakat qiladi . Har bir javob aytilganda, bir qadam oldinga qadam tashlanadi . Aytigan fikrlar bir-birni takrorlamasin. Belgilangan joyga kim birinchi borsa, so`z qasrining kalitiga ega bo`ladi. Qasr sizniki, marhamat!

O`yin tugagach, BBB jadvali oxirigacha to`ldiriladi.

**V.O`quvchilar bilimini baholash:**G`olib guruhlar aniqlanadi, darsda faol qatnashgan o`quvchilar rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa: 56-mashq. Kishilik olmoshlari qatnashtirib «Maktabimizda gullar bayrami» mavzusida matn tuzing.



Тузувчи:

Чориева Ш